

UVAYSIY IJODIDA G'AZAL JANRINING O'RNI

Mamashukurova Niginaxon Xoljo'ra qizi

Andijon davlat universiteti, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada Uvaysiy ijodida g'azal janrining tutgan o'rni, uning badiiy-estetik xususiyatlari hamda mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Shoiraning g'azallarida ishqiy, falsafiy va ma'naviy motivlarning uyg'unlashuvi, lirik qahramon ruhiy kechinmalarining ifodalanishi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, Uvaysiy g'azallarining o'zbek mumtoz adabiyotidagi an'analar bilan bog'liqligi va o'ziga xos jihatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Uvaysiy, g'azal janri, o'zbek mumtoz adabiyoti, lirik qahramon, ishqiy lirika, badiiy tasvir vositalari, poetik mahorat, an'ana va yangilik, ma'naviy-axloqiy qarashlar.

Mumtoz o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos poetik tafakkur va badiiy did bilan ajralib turadigan Uvaysiy ijodi janrlar xilma-xilligi, badiiy shakllarning mukammalligi hamda vazn tizimidan foydalanishdagi yuksak mahorati bilan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shoiraning ijodiy merosi Sharq mumtoz adabiyoti an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda g'azal, muxammas, musaddas, ruboiy kabi janrlar tizimli va maqsadga muvofiq tarzda qo'llanilgan. Bu janrlar orqali Uvaysiy nafaqat o'z davrining poetik me'yorlarini davom ettiradi, balki ularni ijodiy jihatdan boyitadi va individual uslub darajasiga ko'taradi.

Shoira ijodida g'azal janri yetakchi o'rin tutadi. G'azal Sharq mumtoz she'riyatining eng mukammal va barqaror janrlaridan biri sifatida asrlar davomida insonning ichki ruhiy olamini, ishqiy kechinmalarini, tasavvufiy-falsafiy qarashlarini ifodalashning asosiy poetik shakli bo'lib kelgan. Bu janr o'zining qat'iy kompozitsion qonuniyatlari, ya'ni matla (kirish bayt), maqta (yakuniy bayt), qofiya va radif tizimi, hamda aruz vazniga asoslangan ritmik tuzilishi bilan ajralib turadi. Uvaysiy g'azallarida mazkur an'anaviy poetik mezonlar izchil saqlangan holda, ularga individual ijodiy yondashuv singdirilganligi kuzatiladi. Uvaysiy g'azallarining mazmuniy qatlamida an'anaviy ishqiy motivlar yetakchi bo'lsa-da, ular oddiy takror darajasida emas, balki ayol qalbining o'ziga xos psixologik kechinmalari bilan boyitilgan holda talqin etiladi. Shoira lirikasida sadoqat, hijron iztiroblari, visol orzusi, muhabbatning ma'naviy poklanish vositasi sifatidagi talqini chuqur emotsional va semantik mazmun kasb etadi. Lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali berilgan ruhiy holatlar poetik obrazlilik va badiiy umumlashtirish darajasida ifodalanib, o'quvchida kuchli estetik ta'sir uyg'otadi. Bu jihat Uvaysiy g'azallarini nafaqat an'anaviy ishqiy lirika namunasi, balki individual psixologik lirika sifatida ham baholash imkonini beradi.

Uvaysiy g'azallarining kompozitsion tuzilishi izchil va mukammal bo'lib, har bir bayt o'zaro semantik bog'liqlik asosida umumiy g'oyaviy markazga xizmat qiladi. Matla baytda asosiy poetik ohang va mavzu belgilanib, keyingi baytlarda u turli badiiy vositalar orqali rivojlantiriladi, maqta baytda esa umumlashtiruvchi xulosa yoki shoiraning taxallusi bilan yakun topadi.



Zaboningni keturgnl. ey shakarlab to'ti, guftora,
Nechukkim marhamat bo'lsun necha mendek dilafkora.
Nigohing tashlag'il lutf aylabon, ey sho'x beparvo,
Io'lungda intizor o'lg'on menn bul oshihn zora.
Meni «lo yadxulu» deb mahrum etma, bog'bon ahln,
Azal dehhoni bag'rim qonini to'kkandi gulzora.
Elimda bosh ila jon xorij o'lg'um ikki olamdnn,
Ko'rub qallochlik ko'rsatma zulmingni xaridora.
Bag'nr qonnm edi sahroda butkan lolai rangin,
Bihamdillah, ne soat kun edi sanchnldn dastora.
Xabardor o'l xarobot ahli nchra, soqiyi davron,
Payopay tut ayog'ing tashnalab o'lgan bu xummora.
Muyassar bo'lmasa gar toqi abru sajdagohingdin
Na hosil senga, zohid, tashlag'il bo'ynungni zunnora.
Uvaysiy, yuz jafo ko'rsang haqiqat yoridin doim,
Ugurma yuz anga, ham solma ko'zni o'zga dildora.

Qofiya va radif tizimi g'azalning musiqiyliigi va ritmik uyg'unligini ta'minlovchi asosiy unsurlar sifatida faol ishtirok etadi. Radifning muntazam takrorlanishi nafaqat she'rning ohangdorligini kuchaytiradi, balki uning semantik markazini mustahkamlab, asosiy g'oyani ta'kidlovchi stilistik vosita vazifasini bajaradi. Uvaysiy g'azallarida aruz vaznining turli bahrlaridan mahorat bilan foydalanilganligi kuzatiladi. Vazn tanlashda mazmun va shakl uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilib, ritmik tuzilish orqali she'rning emotsional-ekspressiv ta'siri kuchaytiriladi. Natijada, g'azalning nafaqat mazmuniy, balki fonetik va ritmik qatlamlari ham o'zaro uyg'unlashib, badiiy mukammallikni ta'minlaydi. Shu tariqa, Uvaysiy g'azallari mumtoz she'riyat an'analarini davom ettirgan holda, individual poetik tafakkur mahsuli sifatida alohida ilmiy-estetik qimmat kasb etadi.

G'azal janridagi asarlar Jahonotin Uvaysiy ijodida asosiy janrlardan biri hisoblanadi. Shu kungacha e'lon qilingan ushbu janrdagi she'rlar soni 269 tani tashkil qiladi. Bu hisobga ilgari nashr etilmagan hamd va na't mavzusidagi hamda boshqa mavzulardagi g'azallarni qo'shsak, Uvaysiy g'azallari soni 300 dan ortadi. Har bir yetuk ijodkor halq dardini, uning muammolarini kuylamasa, millatning dardiga malham bo'lmasa, uning ijodi o'z qadru qimmatini uzoq ushlab tura olmaydi. Jahonotin Uvaysiyning g'azallari ham olamu odam va uning muammolari, diniy-tasavvufiy mavzularda bahs yuritadi. Ayniqsa, shoiraning hamd va na't mavzusidagi g'azallari Uvaysiy dunyoqarashining g'oyatda kengligini, diniy va dunyoviy bilimlarining chuqurligini o'zida namoyon etadi. Uvaysiyning hamd va na't mavzusidagi g'azallari soni 50 dan ziyod bulib, biz ulardan 10 tasini matniy tadqiq qildik va poetikasini ishlashga harakat qildik. Bular quyidagi "Ey xojai xaloyiq, mahbubi kibriyo", "Qodiru qayimdursan, hamdinga ruxsat mengo", "Bihamdillah, tilimni ayladim hamdinga man go'yo", "Ayo Sayyidi olamayni mahliqo", "Loldur hamdinga til zoti ulug' poki xudo", "Ey haqiqat podshahi, olamni qilding san bino", "Ayo Sayyidi olamayni

mahluqo”,” Mamot ahli topar jon, bu sifat nazm o’lsa gar paydo” deb boshlanuvchi g’azallardir. Jahonotin Uvaysiyning aksariyat hamd va na’t mavzusidagi g’azallari an’anaviy ramal va hazaj bahrida yozilgan. Ayniqsa, shoiraning ijodida xalq og’zaki ijodiga hamohang bo’lgan ramal bahri juda ko’p uchraydi. Shoiraning aksariyat g’azallari an’anaviy 7 baytni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Uvaysiy ijodida g’azal janri yetakchi o’rin tutadi va shoira badiiy iste’dodining eng yorqin namoyon bo’lish shakli hisoblanadi. Uning g’azallarida ishqiy kechinmalar, ruhiy iztiroblar va insoniy fazilatlar chuqur lirizm bilan ifodalangan.

Uvaysiy g’azallari o’zbek mumtoz she’riyatining an’analariga tayanib, shu bilan birga, ayol qalbining nozik kechinmalarini o’ziga xos tarzda aks ettirishi bilan ajralib turadi. Shoira ijodi orqali g’azal janri yangi mazmun va badiiy ifoda bilan boyiganini ko’rish mumkin. Shu bois, Uvaysiy g’azallarini o’rganish o’zbek adabiyotshunosligida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi hamda mumtoz merosni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Komilov N. Tasavvuf va mumtoz she’riyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
2. Адизова А. Увайсий шеърлятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. – Тошкент:Муҳаррир нашриёти, 2020.
3. Нуруллоҳ И. Асмоул Ҳусна ва Ёсин, Таборак. – Тошкент: “Мунир” нашриёти, 2023.
4. Rafiddinov S. Uvaysiy va o’zbek mumtoz adabiy an’analari. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Quronov D. Adabiy tafakkur va poetik tahlil. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

